



TURKIY SHE'RIYATDA CHISTONNAVISLIK : ALISHER NAVOIY VA UVAYSIY IJODIYOTIDA

Ibragimov Javohir Isamiddin o'g'li¹

Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.

Qamariddinov Kamoliddin Qamariddin o'g'li²

Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.

Elmurodov Azizjon G'ayratovich³

Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.

¹⁻²⁻³Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7031257>

ARTICLE INFO

Received: 22nd August 2022

Accepted: 25th August 2022

Online: 29th August 2022

KEY WORDS

Gumanizm, lug'z, qit'a,
gulgunpo'sh,

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Uvaysiyning chiston janridagi ijod namunasi bo'lmish "Anor" chistonidagi o'xshashlik ko'rsatib berilgan. Ulardagi davr muhiti bilan bog'liqligini ochib berishga qaratilgan.

"Adabiyotning aynan ma'naviyat xazinasi ekanining yana bir sababi shundaki, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng noyob hislar – insonparvarlik (gumanizm), adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'slik, mehr va adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'slik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabbat, go'zallikka tashnalik singari o'lmas insoniy tuyg'ular jamuljamdir. Adabiyotga oshno tutingan odam qalbiga bu hislar ko'chib o'tishi, uni hazrati insonga aylantirishi, hayotiga nur olib kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniqdir." Adabiyot kirib borgan Yerning jamiyki nuqtasida uning bog'-u rog'lari gullab o'z mevasini berib ulgurgan. Inson ma'naviyatining asosi hisoblangan adabiyot yillar davomida sayqallanib kelmoqda. Turkiy adabiyot ham o'zining bir qancha turlarga bo'linib go'zalligi bilan

olam ahliga o'z durlarini namoyon etmoqda. Shu jumladan so'z mulkining sultoni bo'lmish Alisher Navoiyning ijodi alohida o'ringa ega. "Butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, jamyatda davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlangan bobokalonimiz hayoti haqidagi ma'lumotlarning deyarli barchasi saqlanib qolingan". Buyuk ijodkor hayot yo'li va uning faoliyati bilan bog'liq ko'plab ishlar olib borilgan. Ularning deyarli barchasi bugungi yosh avlodning kitob javonidan joy olib ulgurgan. G'azallari kuyga solining jahon arenalarida yangrab kelmoqda. Yana shunday ijod namunasi borki uning buyukligidan namunadir.

"So'z mulkining sultoni" deya atalmish Alisher Navoiyning asarlari anchaginani



tashil etib ularning barchasida o'z o'rni va ahamiyati bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Vaholanki ular orasida chiston janri ham bor. Turkiy adabiyotga ilk bor chiston Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan bo'lib fors-tojik adabiyotida undan bir necha asr ilgari ham mavjud edi. Navoiy o'zining "Xazoyin ul-maoniy"devonida o'ncha chiston yozgan. Mumtoz adabiyotda she'riy topishmoq janri bo'lib xizmat qilgan lug'z nomi bilan ham yuritiladigan chistonning hajmi cheklanmagan bo'lib ko'pincha bir yoki ikki bayt shaklida uchrab turadi. Navoiydan so'ng turkiy adabiyotda bu janrga qo'l urgan ijodkor sifatida Uvaysiyni aytaolamiz. Ikkala ijodkor o'z muhiti va imkoniyatidan dan kelib chiqqan holga ijod etishgan. Manbalarga qaraganda Navoiy chistonlari o'ntani tashkil etsa Uvaysiyning ijodida ellikdan ortiqdir. Navoiy chistonlaridan sakkiztasi qit'a shaklida, ikktasi to'rtlik shaklida bo'lib Uvaysiyning chistoni g'azal, to'rtlik va ikkilik shaklida yaratilganligi olimlar tomonidan aniqlangan. Tarixdan malumki Uvaysiyning hayot yo'li juda og'ir kechganligi va uning keyinchalik Nodirabegimning saroyida yashaganigi uning o'z asarlarida ko'chgan. Xon haramidagi kanizlar va gulday yoshligi saroy gumbazi ostida xazon bo'layotgan qizlarning bag'irlari qonligini o'zining "Anor" chistoni zamirida keltirib o'tgan. Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.
Shu kabi Navoiyning ijodidagi "Anor" chistonida ham davriy muhit qistirib

o'tiladi. Navoiy ushbu chistonida anotning tashqi ko'rinishidan boshlab ichiki holatini chiroyli tarzda ko'rsatib beraolgan. Ne majmardur, to'la axgar, vale ul majmar andomi,
Erur sun'ilgidin gohi musaddas, gah musamman ham.
Chiqar ravzandin axgar dudiya bu turfakim, aning
O'tig'a dud yo'qtur, majmarig'a balki ravzan ham.
O'tu majmar dema, bor ul sadafkim, durlarin aning
Evurdi qong'a davroni mush'abat charxi purfan ham.
Agar bu nav` emas, bas ne uchun bormoq kuchi birla
Bo'shar jismi, oqar qoni, anga majruh o'lub tan ham.
Nechakim tab'i noridur va lekin me'da norig'a
Berur taskin, munung naf'in topibmen voqian men ham

Navoiy va Uvaysiyning o'xshash nom asosida yaratgan chistonlari dan bo'lmish "Anor" chistonining zamirida ezilgan xalq hayoti yotadi. Uvaysiy o'zining ko'rgan davrasi bilan kifoyalangan bo'lsa Navoiy butun xalqini oddiy anor holatiga sig'dira olgandir. Ikki ijodkorning chistonida "qon" so'zi kelib uning ham mazlum holatning aksini anorning siqilishidagi qizil suyuqlikka qiyos etib beraolishgan.

Ikki ijodkorning ijod namunalarida tashbeh, tajohili orifona, ru'ju va boshqa she'riy san'atlar ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Navoiy o'z chistonlarida nishonga olingan narsalarning asosiy ko'rinishi bilan markaz tomon ildamlagan bo'lsa Uvaysiy chistonlarida o'zi aytishga qiynalgan ko'rinishni asarlariga jamlab ko'rsata bilgan. Umuman ikki ijodkorning ham



chistonlarida davr holati aks etgan. Navoiy
bu borada birinchi bo`lib poydevor
qo`yganligi keyinchalik bu janrning turkiy

adabiyotda yuksalganligini ko`rish
mumkin.

References:

1. Toshkent "MA`NAVIYAT" 2017 6-sinfi uchun darslik-majmua
2. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent – 2017
3. Xazoyin ul- maoniy. Alisher Navoiy / So`zboshi muallifi Muhammad Ali. To`plovchilar: Qodirjon Ergashev, Adhambek Alimbekov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 256 b.